

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT YARATISH OMILLARI

**Karimova Nilufarxon Zohidjon qizi***Osiyo xalqaro univerteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda sog'lom psixologik muhit yaratish omillari haqidagi fikr- mulohazalar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *diqqat, xotira, qobiliyat, xususiyat, rivojlanish.*

**Abstract:** *This article discusses the factors of creating a healthy psychological environment in primary education.*

**Key words:** *attention, memory, ability, characteristic, development.*

Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklardan biri ayrim bolalarning maktab ta'limiga tayyor bo'lmagan holda kelishi bilan bog'liq. Haqiqatdan ham, ayrim bolalar o'zlari uchun yangi bo'lgan ijtimoiy-psixologik rol uchun nafaqat tayyor bo'lmagan holda, balki bilim, malaka va ko'nikma darajalari, o'qishga moyilligi turlicha bo'lgan individual-psixologik tafovutlari bilan keladilar. Bu ularning ayrimlari uchun o'qishni o'ta yengil, zerikarli va qiziqarsiz mashg'ulot bo'lib qolishiga asos bo'lsa, boshqalari uchun haddan ziyod qiyin (Mashaqqatli, og'ir va ana shularning oqibatida ular uchun ham qiziqarsiz) mashg'ulotga aylantirib qo'yadi. Faqat uchinchi toifa bolalar uchungina ta'lim dasturlari, ularning qobiliyatiga mos keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar. Ularda diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslashish imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ulardagi ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. O'quv materiallarining yaqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ularni uyog'otadi va kuchli irodaviy zo'riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2-sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat obektlari ustida uzoq to'plab tura olmaydilar.

O'quv faoliyati esa boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. Lekin bu yoshda yuqorida qayt etilganidek ixtiyorsiz xotira shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning ma'lumotlarni xotirasida qay darajada saqlab qolishini belgilab beradi. O'quv materiallarni tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni manosi tushunib, esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham

ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. Psixolog olim E.G'.G'oziyevning fikricha, buning sabablari quyidagilar:

1) kichik maktab yoshidagi bolalarda mexanik hotira boshqa hotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham u ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) O'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabni so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;

3) ularda nutq boyligining yetishmasligi (ilmiy atamalar, til qonunyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) O'quvchilar matnni to'g'ri, samarali usullar bilan eslab qolish yo'llarini bilmaydilar.

Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosi, mohiyati, turli mulohazalar, dalillar, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushurish orqali o'quvchilarda mantiqiy hotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushurish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi. O'quv jarayoni uchun ixtiyoriy esda qoldirish ham, ixtiyoriy esga tushurish ham barobar talab etiladi. Busiz o'qish jarayoni normal bo'lishi mumkin emas. O'quvchilardan faqat o'rganib, bilib olishgina emas, balki o'rganib bilib olganini xotirlay olish ham talab etiladi. O'quv materialini muayyan tizim bilan xotirlash faqat ixtiyoriy esga tushurish yo'li bilangina bo'lishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilishga nisbatan qiziqishlarining ortishida o'yin mashg'ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin orqali o'quvchilarda bilishga nisbatan qiziqish, ehtiyoj va ularning negizida o'qish motivlari tarkib topadi. Bolalar bilan tashkil qilinadigan o'yin va mashg'ulotlar ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi va bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bu yosh davriga kelib bolalarda o'yin faoliyati ham o'ziga xos xarakter kasb etib boradi. Ular ancha takomillashib, rivojlantiruvchi o'yinlarga aylanadi. Ularning mazmuni yangi o'zlashtirilayotgan hayotiy tajriba, bilimlar hisobiga o'zgarib boradi. Bolaning individual o'yinchoqlari konstruktiv xarakter kasb etib, endi bola ular bilab o'ynash jarayonida maktabda o'zlashtirgan yangi, ayniqsa tabiiy fanlar, atrofimizdagi olam, mehnat darslarida olgan bilimlaridan keng foydalana boshlaydi. Bolalarning guruh, jamoa bo'lib o'ynaydigan o'yinlari ham intellektuallashib boradi. Shuning uchun ham bu davrda kichik maktab yoshidagi bolalar, maktabda ham, yetarlicha rivojlantiruvchi o'yinlarni o'ynash uchun yetarlicha vaqtiga ega bo'lishlari o'ta muhim ahamiyatga ega. Bu davrda o'yin faoliyati yetakchi faoliyat sifatida bola uchun o'qish faoliyatidan keying ikkinchi o'rinni egallagan bo'ladi va uning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitish jarayonida ham o'yinlardan foydalaniladi, bu o'yinlar o'qish-o'qitish vazifalari bilan bog'langan holda olib boriladi.



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir.

Mazkur yosh davrda o'qituvching har-bir gapi, har bir xatti-harakati, ta'sir ko'rsatish uslubi bola uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki bola o'qituvchiga qattiq ishonadi, uning fikr-mulohazalariga quloq soladi, uning talablariga hamisha amal qiladi, u bergan topshiriqlarini bekami ko'st bajarishga intiladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Shuning uchun ham o'qituvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda katta.

Ana shu davrda o'qituvchi uchun:

a) O'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish, ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab-quvatlash;

b) Ularni atrofdagi kishilarga yordam berishgaq undash, to'g'ri mulohaza yuritishga o'rgatish, nomaqbul odatlardan tiyilish tabiat manzaralarini kuzatish va musiqa tanlashga odatlantirish;

v) ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligi, burch hissini tushuntirish;

g) ular bilan o'qilgan kitoblarini muhokama qilish imkoniyati tug'uladi.

Birinchi sinf o'quvchilariga maktabda o'qituvchi turli vazifalar berib, ularni o'ylashga majbur qiladi, uyda ota-onalar ham uy vazifasini bajartirishda aynan shuni ta'lab qilishadi. Maktabda o'qish jarayonining boshlanishi, aqliy mehnat bolani toliqtirib qo'yishi yani, bolani bunday toliqishi albatta aqliy mehnatning og'irligi tufayli emas, balki uning o'z xatti-harakatini jismonan boshqara olmasligi tufayli yuzaga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Mazkur ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchining shaxsiy istagini o'zida aks ettiradi. Bu ehtiyojlar o'zi dars tayyorlash burchagi, sumkasi, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usini his etish kabilarni o'z ichiga oladi. O'rtoqlari bilan birgalashib o'ynash, birgalikda oshxonaga borish, o'qituvching o'g'itlari ham o'quvchini o'ziga rom etadi. Umuman, kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'qishning tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Oradan ma'lum muddat o'tgach shodiyona lahzalar taasuroti kamayishi bilan maktabning tashqi va ichki belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat ekanligini o'quvchi anglab yetadi. Agar bola shunga o'hshash aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa u holda o'qishdan ko'ngli soviydi.

Maktabga borishi bilan bolaning oiladagi mavqeyi o'zgaradi, unda o'qish va mehnat bilan bog'liq bo'lgan oiladagi dastlabki jiddiy majburiyatlari yuzga keladi. Endi kattalar unga yuqoriroq talab qo'ya boshlaydilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. *PEDAGOG*, 7(5), 670-676.
2. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 40-46.
3. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 54-60.
4. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *PEDAGOG*, 7(4), 328-334.
5. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. *European research*, (3 (81)), 47-49.
6. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 918-924.
7. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 933-939.
8. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
9. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 888-893.
10. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912-917.
11. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900-905.
12. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875-881.
13. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860-866.
14. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
15. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).



16. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
17. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
18. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
19. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O’RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.
20. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG ‘ISHGAN XULQINING KO ‘RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO ‘RINISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 528-532.